

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATINING O'ZIGA XOSLIGI

Ravshanova Madina Zafarbek qizi

University of Business and Science

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir lirikasida milliy ruh, Vatan va xalq taqdiri, insoniy qadriyatlar, muhabbat, ma'naviyat, hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik kabi mavzularning poetik talqini tadqiq etiladi. Shuningdek, shoirning individual badiiy tafakkuri, lirik qahramon ruhiyati, obraz va ramzlar tizimi, falsafiy mushohada, xalqona ifoda hamda poetik til imkoniyatlaridan foydalanish mahoratiga e'tibor qaratiladi. Abdulla Oripov she'riyatida an'anaviy poetik vositalar bilan zamonaviy badiiy tafakkurning uyg'unlashuvi, sodda va ta'sirchan ifoda orqali teran falsafiy mazmun yaratish xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida shoir ijodining o'ziga xosligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan teran lirizm, falsafiy mushohada hamda yuksak badiiy mahoratda namoyon bo'lishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, she'riyat, lirika, badiiy-estetik xususiyat, individual uslub, milliy ruh, lirik qahramon, Vatan, falsafiy mushohada, poetik obraz, ramz, badiiy tafakkur.

Abstract. This article analyzes the distinctive artistic and aesthetic features of Abdulla Oripov's poetry. It examines the poetic interpretation of such themes as national spirit, homeland and the destiny of the people, human values, love, spirituality, life and death, good and evil in the poet's lyrical works. Particular attention is paid to the poet's individual artistic vision, the psychological world of the lyrical hero, the system of images and symbols, philosophical reflection, folk-oriented expression, and the artistic potential of poetic language. The study also explores the synthesis of traditional poetic devices and modern artistic thinking in Abdulla Oripov's poetry, as well as his ability to convey profound philosophical meanings through simple, expressive, and emotionally powerful language. The research demonstrates that the uniqueness of the poet's literary heritage is manifested in profound lyricism, philosophical reflection, and artistic mastery, through which national and universal human values are harmoniously combined.

Keywords: Abdulla Oripov, poetry, lyrical poetry, artistic and aesthetic features, individual style, national spirit, lyrical hero, homeland, philosophical reflection, poetic image, symbol, artistic thinking.

She'riyat dunyosi – sehrli olam. Yaxshi she'r esa chinakam mo'jiza. U qalblardan qalblarga, tillardan dillarga ko'chadi. Ana shunday she'r yozadiganlardan biri Abdulla Oripov edi. Shoirning quyidagi quyma misralari hayajonsiz o'qilmaydi:

Chig'atoy ko'chasin so'l tomonida

O'tsangiz, muqaddas xilxona turar.

Sanoqsiz qabrlar g'aladonida

Yotibdi "Otello – u buyuk arab.

60-yillar o'zbek poeziyasi taraqqiyotida katta siljishlar bo'ldi. Yirik ijodkorlar qatoriga E.Vohidov, A.Oripov singari yosh ijodkorlar qo'shildi. O'sha kezlarda ular ijodiga professorlar Laziz Qayyumov, Ozod Sharafiddinovlar yuqori baho berishgan edi.

Abdulla Oripov she'riyati zamon sadosiga jo'rovoz she'riyatdir. Abdulla Oripov 20-asr o'zbek adabiyotining zabardast namoyondalaridan biri, atoqli o'zbek shoiri va jamoat arbobi sifatida o'zbek she'riyatida inson qalbidagi murakkablik, ziddiyatlarni, haq-nohaqliklarni, adolat, razolatni teran va haqqoniy, ayniqsa, o'ziga xos, betakror kuylagan ulkan ijodkor edi.

Abdulla Oripov yangi bosqich o'zbek adabiyotiga yangicha badiiy tafakkur olib kirdi. Birga shakllanib, voyaga yetgan O'zbekistonning shoir va yozuvchilari avlodi Abdulla Oripov singari ijodkorlarning asarlarining kuchli ta'siri ostida o'sdi. Bu ta'sir o'zbek adabiyotiga kirib kelayotgan har bir yangi bo'g'in vakillari ijodida aks etdi. Ularda emotsional-falsafiy mayl, baland va eng muhimi, xalqchil, g'oyaviy-badiiy mukammal she'riyat edi. Shuning uchun ham Abdulla Oripovning har bir chiqishi shoir ijodining muxlislari uchun katta quvonch bag'ishlar edi.

She'riyat – Abdulla Oripov uchun muqaddas dargoh. Yetuk adabiyotshunos M.Qo'shjonov o'rinli ta'kidlaganidek: "Abdulla Oripovning hayotini she'riyatdan xoli tasavvur qilish qiyin. She'riyat uning uchun qon va jon ishi, uning yuragi. U tabiatan she'riyat uchun tug'ilganday!"

"Tuprog'i oltin O'zbekiston"ning chinakam shaydosi bo'lgan shoir o'z ona xalqini – "bundayin zahmatkash yer yuzida kam", - deya ardoqlagan edi. Biroq shoir quvonchlari nihoyasiga yetgach, u hushyor tortadi. Suyukli xalqining kelajagi uni o'yga toldiradi. Dard bo'lib shoir qalbiga ko'chadi. Nihoyat, nidoli misralar quyiladi:

Xudbin tengdoshimga qarayman g'amgin,

Ko'lmak davra ko'rsam, ezilar ko'nglim.

Xalqim, kelajaging o'shalariniki,

Xalqim, shundaylarga qolmasin kuning.

Inson pari yoki farishta emas. Inson mavjudotning gultojidir. Asrlar davomida noinsoniy hissiyotlardan inson uzoqda turishi kerak. "Shaytonga o'rtoq" bo'lganlar insonlar nafratiga duchor bo'ladilar.

She'ring qanday mavzuda bo'lishidan qat'i nazar, shoir bosiqlik va qat'iyat bilan fikrlaydi. Ana shunday ifoda uslubini uning "Inson manzarasi", "Qo'riqxon", "Uchinchi odam", "Iltimos", "Ishonch ko'priklari", "Yalang 'och satrlar", "Tiriklik", "G'alati zot", "Tulki falsafasi" kabi she'rlarida ham ko'ramiz.

Shoirning mashhur she'rlaridagi o'ychanlik, teran falsafiy mushohada satrlar orqali kitobxon qalbiga ko'chadi. Ularni ham hushyor torttiradi, fikrlashga undaydi. Yaxshi insonlarga nisbatan samimiyat tuyg'usi uyg'onadi.

Oyog'im zaminga qadagan sobit

Komil inson zoti nechog'lik yuksak.

Faqat u mavjudki, olam fayziyob,

Faqat insonlikka uning haqqi bor.

Ustuvor insonlar, siz nechog' noyob,

Sizni uchratgan qalb nechog' baxtiyor.

Shoirning to'plamidan o'rin olgan "Saodat", "Bayram she'ri", "Salomnoma", "Havas", "Qahramon", "Ziyo", "To'quvchi qizlarga", "Muallima", "O'zbek paxtasi" kabi talay she'rlarida qadoq qo'lli bobodehqon, mexanizator, suvchi, ziyoli, ishchi-to'quvchi – xullas, o'z halol mehnati bilan jamiyatimiz ko'rkiga ko'rk qo'shayotgan fidoyilar samimiyat, ehtirom bilan tilga olinadi. Rostgo'ylik, tantilik, halollik kabi olijanob fazilatlar sohiblari o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Xullas, ezgulik shoirga zavq bag'ishlasa, g'irromlik uning nafratiga duchor bo'ladi.

"Yillar armoni" to'plami shoirning deyarli chorak asr davomida yozgan sara ijod namunalaridan tuzilgan bo'lib, u ma'lum darajada armonli yillaridan o'z-o'ziga kichik hisobot tarzida tashkil topdi.

So'nggi yillarda jamiyatda ro'y bergan o'zgarishlar, ularning zamondoshlarimiz qalbi va tafakkuriga ko'rsatayotgan ta'siri shoirning "Ishonch ko'priklari", "Munojot", "Hikmat sadolari", "Haj daftari" singari to'plamlariga kirgan she'rlarida yorqin aks ettirilgan.

Abdulla Oripov o'zbek adabiyotini "Jannatga yo'l" (1978), "Hakim va ajal" (1980), "Ranjkom" (1988) kabi bir qator dostonlari bilan boyitdi.

Abdulla Oripovning ellik besh yillik ijodi bir tekisda kechgani yo'q, albatta. Bu yo'lda sho'ro hukumati davrida haqiqatni ayta olmaslik azoblariyu aytilgandagi dashnomlar ham hukmron mafkura ta'sirida uning g'oyalarini kuylash va milliy mustaqillik yo'lidagi fidoyi kurashlar ham bo'ldi. Biroq past-balandliklar, parvoz va qiyinchiliklar, eng asosiysi, shoirning o'z xalqiga, xalqning o'z shoiriga adoqsiz mehr-muhabbatini bir lahza ham susaytirgani yo'q. Aksincha, izlanishlar va qiyinchiliklar, ulardan o'sib chiquvchi yangi izlanishlar xalq va shoirning bir-biriga sadoqatini yanada mustahkamladi.

Abdulla Oripov o'zbek she'riyatiga "mitti yulduz"dek kirib kelgan bo'lsa-da, uning birinchi qadamlaridanoq mohiyat izlovchiligi, ya'ni inson taqdiri to'g'risida jasorat bilan jo'shib kuylashi ko'pchilikning e'tiborini o'ziga jalb qildi. Bu xislat uning she'rlarida yildan yilga kuchayaverdi. Shu tarzda bizning ko'z o'ngimizda "Abdulla Oripov she'riyati" deb atalmish bir poetik olam vujudga keldiki, u birinchi navbatda inson qalbining eng teran, eng murakkab, eng pinhoni xislatlarini haqqoniy va samimiy aks ettirish bilan hammani mahliyo etadi.

Abdulla Oripov tarjima sohasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. U buyuk italyan shoiri Dante Alligeri qalamiga mansub "Ilohiy komediya"ning "Do'xaz" qismini o'zbek tiliga o'girdi.

U ijodiy ishini uzoq yillardan beri bir qator nashriyotlarda, "Sharq yulduzi", "Gulxan" kabi jurnallarda, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida mehnat qilish bilan qo'shib olib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Oripov, A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2000.
- 2.Oripov, A. Yillar armoni. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1984.
- 3.Oripov, A. Haj daftari. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1992.
- 4.Oripov, A. Jannatga yoʻl. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1990.
- 5.Oripov, A. Munojot. – Toshkent: Sharq, 1992.
- 6.Oripov, A. Sohibqiron. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1996.
- 7.Karimov, N. XX asr oʻzbek adabiyoti manzaralari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2008.